"ENG YAXSHI YOSH METROLOG" milliy tanlovida ishtirok etish uchun ilmiy ishlarning to'liq matnlarining mazmuni va ularning tuzilishiga qo'yiladigan talablar

1. Tanlovda ishtirok etish uchun quyidagi tarkibiy bo'limlarga ega bo'lgan ilmiy ishlar qabul qilinadi:
   - Ilmiy yoki amaliy jihatdan dolzarbligi;
   - Ishning maqsadi;
   - Ilmiy yangiligi yoki amaliy ahamiyati;
   - Ish vazifalari;
   - Ishning mohiyati;
   - Olingan natijalar;
   - Nomzodning shaxsiy hissasi.
2. Ish elektron ko'rinishda *doc formatida taqdim etilishi kerak. Tanlovda ishtirok etish uchun nomzod ilmiy ishining matnini o'z ichiga olgan fayl nomi nuqta va ochiq joysiz familiya va bosh harflardan tuzilishi kerak, masalan **AliyevTR.doc**. Ish matni 1 intervalda, chap tomondan 3 sm, yuqori, past va o'ng tomondan 2 sm, "Arial" shriftda, 11 band o'lchamda rasmiylashtiriladi.

Ish hajmi rasmlar, ularga tegishli yozuvlar, jadvallar, adabiyotlar ro'yxati va boshqalarni inobatga olganda A4 formatidagi 4 (to'rt) sahifadan oshmasligi lozim.

Ilmiy ish va uning annotatsiyasi davlat tili yoki zarurat bo'lganda boshqa tilda taqdim etiladi.

Qo'shimcha ravishda matn faylida barcha formulalar va jadvallar bo'lishi kerak. Word tahririda bajarilmagan rasmlar, ularni namoyish qilish bilan bog'liq muammolar yuzaga kelganda, tezkor so'rov bo'yicha alohida fayllarda taqdim etilishi kerak. TIF, BMP, JPG, WMF, CorelDRAW formatda bo'lgani afzal. Rasmlarning tavsiya etilgan minimal o'lchami – 9×12 sm. Formulalar umumiy qabul qilingan formatlarning birida taqdim etilishi kerak.

3. Muassasaning **dastlabki ma'lumotlarida** ish quyidagilarni o'z ichiga olishi lozim: ishning nomi (davlat tili yoki rus tilida), muallif(lar)ning ism-shariflarining bosh harflari va familiyasi; ilmiy ish chiqqan tashkilotning qisqartirilgan nomi, shahar va viloyat, shuningdek asosiy muallifning telefon raqami va elektron (e-mail) manzili.
4. Tashkilotning dastlabki ma'lumotlariga, ishning asosiy mazmuni butun metrologik hamjamiyat uchun qulay shaklda bayon etilgan annotatsiya (150 dan 200 so'zgacha) ilova qilinadi.
5. Tanlov ishlarining to'plamini tayyorlash vaqtida uning to'g'ri formatlanishini tekshirish imkoniga ega bo'lish uchun *.doc formatidagi faylga qo'shimcha ravishda ishni to'liq *.pdf formatga o'tkazish yoki skaner qilib, tegishli bosma taxririni yuborish tavsiya etiladi.
6. Faqat matnda havolasi berilgan formulalar raqamlanadi (o'ng tarafda dumaloq qavs ichida).
7. Jadvallar va ularga havolalar ketma-ket tartib raqamlariga ega bo'lishi lozim.
8. So'zlar, ismlar, nomlar, o'lchovlar, fizik, kimyoviy, matematik kattaliklarning

qisqartmalari va muddatlar umumiy qabul qilingan bo‘lishi yoki matnda birinchi marta ishlatilganda to‘liq bayon qilinishi lozim. Kattalik birliklari, ularning nomi va belgilanishi O’zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2018-yil 10-yanvardagi 21-son qarori bilan tasdiqlangan “Kattalik birliklarini yozish va qo‘llash qoidalari”ga asosan qo‘llanilishi lozim.

9. Ish matnidagi bibliografik havolalar adabiyotlar ro‘yxatiga muvofiq butun ish matnida tartibga ko‘ra raqamlangan raqamlar bilan taqdim etiladi.

Adabiyotlar ro‘yxati tilidan qat’iy nazar, manbalardan matnda foydalanilgan tartibda tuziladi.

10. Keltirilgan qoidalarga muvofiq rasmiylashtirilmagan ishlar ko‘rib chiqilmaydi.

11. Tanlov hujjatlari taqdimotida mavzuning ahamiyatini va O’zbekiston Respublikasida o‘lchashlarning yagona birlikda bo‘lishini ta’minlash sohasida rivojlanish imkoniyatlarini namoyish etadigan slaydlar taqdim etilishi lozim. Shuningdek, taqdimot slaydlarida (agar mavjud bo‘lsa) tadqiqot mavzusi bo‘yicha asosiy nashrlar va taqdimotlar (turli darajadagi jurnallardagi maqolalar, ilmiy konferensiyalardagi ma’ruzalar, ixtirolar va patentlar) ko‘rsatilishi lozim.

12. Tanlovga taqdim etilgan ilmiy ish mustaqil ravishda yoki to‘rt kishidan ko‘p bo‘lmagan, ular tarkibiga tanlovda ishtirok etishiga ruxsat etilgan nomzod – asosiy muallif sifatida og‘zaki ma’ruza bilan chiqadigan tanlov ishtirokchisi va uch yoki undan kam hammualliflar kiradigan, mualliflar guruhi tarkibida bajarilishi mumkin.